

**RUS TILI GRAMMATIKASI VA ADABIYOTI: BOY  
ILMIY-MA'NAVIY MEROsi**

**Sultanaliyeva Farangiz Baxtiyarovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,  
Tillar fakulteti (Rus tili va adabiyoti) yonalishi talabasi

**Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti. O'zbek tili  
va uni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 18.05.2025

Revised: 19.05.2025

Accepted: 20.05.2025

**ANNOTATSIYA:**

**KALIT SO'ZLAR:**

rus tili, grammatika,  
adabiyot, madaniy merozi,  
tilshunoslik, klassik  
adabiyot, o'quv jarayoni

Mazkur maqolada rus tili grammatikasi va adabiyotining tarixiy shakllanishi, uning boy ilmiy-ma'naviy merozi, tilshunoslik va badiiy tafakkurda tutgan o'rni, shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Rus tili nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tafakkuri, tarixi va madaniyatini mujassam etgan hodisa sifatida tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, rus adabiyoti klassiklari merozining ta'limiy va estetik qadri, grammatik tizimining izchilligi va nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi.

**KIRISH.** Til har bir xalqning ma'naviy olamining ko'zgusi, milliy tafakkurining asosi hisoblanadi. Rus tili esa, o'zining boy grammatik tizimi va betakror adabiyoti orqali asrlar davomida nafaqat rus xalqi, balki butun dunyo madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda rus tili xalqaro miqyosda muloqot vositasi sifatida, shuningdek, ko'plab ilmiy va adabiy merozni o'rganishning kaliti sifatida qadrlanadi. Ayniqsa, uning grammatik asoslari va badiiy adabiyoti xalq ma'naviyatini chuqr o'rganish imkonini beradi.

Rus tili grammatikasi, ayniqsa morfologik va sintaktik tizimi, o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Grammatika bo'yicha N. Yu. Shvedova, A. M. Peshkovskiy, V. V. Vinogradov kabi mashhur tilshunoslar tomonidan yaratilgan nazariy asoslар tilning ichki tizimini chuqr tushunishga xizmat qilgan. Fonetik qonuniyatlar, morfemik tahlil, so'z

turkumlari, fe'l zamonlari va gap tuzilmalari rus tilining zamonaviy nazariyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Grammatik tuzilishdagi mantiqiy izchillik, so'z yasash va gap tuzishdagi qat'iy qoidalar tilni o'rganayotgan shaxs uchun aniq yo'nalish beradi. Rus tili grammatikasi orqali shaxsnинг mantiqiy fikrlashi, tafakkurini aniq ifodalash qobiliyati rivojlanadi.

Rus tili – dunyodagi eng ko'p tarqalgan slavyan tillaridan biri bo'lib, uning grammatikasi chuqur tizimga ega va uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Rus tili grammatikasi, fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi hamda stilistikasi haqida ko'plab ilmiy asarlar yozilgan. Ayniqsa, M.V. Lomonosov, A.A. Shaxmatov, V.V. Vinogradov, N.Yu. Shvedova kabi olimlar rus tilshunosligi rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Rus grammatikasining asosiy jihatlari:

Fonetikasi: tovushlar tizimi, urg'u, ohang.

Morfologiyasi: so'z turkumlari, fe'l zamonlari, jinslar va h.k.

Sintaksisi: gap tuzilishi, bog'lovchi vositalar.

So'z yasash: affikslar, birikma orqali so'z hosil qilish.

Stilistika: uslubiy vositalar va ularning adabiy matnlarda qo'llanilishi.

Rus adabiyoti — badiiy tafakkurning yuksak namunasi

Rus adabiyoti, xususan XIX asr klassik adabiyoti — A. S. Pushkin, F. M. Dostoyevskiy, L. N. Tolstoy, I. S. Turgenev, N. V. Gogol va boshqa yozuvchilarining ijodi — nafaqat rus xalqining, balki butun insoniyatning badiiy tafakkuriga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Pushkin she'riyati rus adabiy tilining takomillashuvi va estetik shakllanishida o'rnak bo'lsa, Dostoyevskiy falsafiy-problematik romanlari bilan inson ma'naviyati, erkinlik va axloqiy tanlov masalalarini yoritgan. Tolstoy esa inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur badiiy talqin qilgan.

Bu adabiy merosning o'quv jarayoniga kiritilishi talabalarning adabiy didi, estetik dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Rus adabiyoti dunyo adabiy merosida alohida o'rin egallaydi. U asosan quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Qadimgi rus adabiyoti (11–17-asrlar): diniy mavzudagi yodnomalar, "Igor polki haqida qo'shiq".
2. Klassik adabiyot (18–19-asrlar): A.S. Pushkin, M.Yu. Lermontov, N.V. Gogol, L.N. Tolstoy, F.M. Dostoyevskiy kabi yozuvchilar ijodi.
3. 20-asr adabiyoti: A.A. Blok, M.A. Bulgakov, A.I. Soljenitsin, A.P. Chexov, S.A. Yesenin.

4. Zamonaviy adabiyot: yangi davr yozuvchilari va shoirlari orqali ijtimoiy, ma'naviy va madaniy masalalarni yoritish.

Ta'lif jarayonida rus tili va adabiyoti merosidan foydalanish

Rus adabiyoti – ma'naviy meros manbaidir. Rus adabiyoti dunyoga ko'plab buyuk yozuvchilarni ijod namunasini o'z ichiga qamrab olgan. Bu namunalarga buyuk yozuvchilarimizni ijodidan misol qilib olsak bo'ladi.

Aleksandr Pushkin – rus adabiyotining asoschisi, she'riyatni yangi bosqichga olib chiqqan.

Lev Tolstoy – "Urush va tinchlik" asari orqali insoniyat, axloq va jamiyat haqida chuqr fikr yuritgan.

Fyodor Dostoyevskiy – inson ruhiyati, ijtimoiyadolatsizlik va axloqiy qarama-qarshiliklar haqida yozgan.

Anton Chexov – real hayotni oddiy, ammo chuqr mazmun bilan tasvirlagan hikoyalar muallifi.

Zamonaviy pedagogik metodikalarda rus tili va adabiyoti elementlarini integratsiyalash — til o'rgatishning samaradorligini oshiradi. Grammatik topshiriqlarni adabiy matnlar asosida berish, tilni badiiy muhitda o'rganish, tahliliy yondashuv orqali o'quvchilarning lingvistik va badiiy kompetensiyalarini shakllantiradi.

Ayni vaqtida rus adabiyoti asarlarida til va madaniyat birligining yorqin ko'rinishi mavjud bo'lib, bu esa til o'rganuvchining madaniy tafakkurini ham kengaytiradi.

Xulosa

Rus tili grammatikasi va adabiyoti xalq ma'naviyati, madaniy merosi va estetik qarashlarining mujassamidir. Ularni o'rganish — bu nafaqat tilni egallah, balki xalq tarixini, falsafasini, axloqiy-ruhiy qadriyatlarini anglash demakdir. Rus tili grammatikasi o'zining nazariy izchilligi bilan, adabiyoti esa badiiy teranligi bilan har bir o'rganuvchida tilga va madaniyatga bo'lgan hurmatni shakllantiradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Shvedova N. Yu. — «Russkaya grammatika»
2. Vinogradov V. V. — «Russkiy yazyk: Grammatischekoye ucheniye o slove»
3. Pushkin A. S. — «Evgeniy Onegin»
4. Dostoyevskiy F. M. — «Bratya Karamazovy»
5. Tolstoy L. N. — «Voyna i mir»
6. Vlasova O. A. — «Metodika prepodavaniya russkogo yazyka i literatury»

- 
7. Матқосимова, М. (2024). НЕМИС ТИЛИДАГИ СИМВОЛИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМАСИ. IQRO INDEXING, 9(2), 601-605.
8. Маткасимова, М. Э. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В SMS. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 687-691.
9. Xudaberdiyevna, I. N., Kozimbekovna, M. N., Rustamovich, M. R., & Sobirovich, P. M. (2021). DAS GRAMMATISCHE GESCHLECHT UND STRUKTURELL-SEMANTISCHE KLASSIFIKATION DER SUBSTANTIVE. apni. ru Редакционная коллегия, 35.
10. Mamatova, N. K., Israilova, N. K., Mamatov, R. R., & Sodikov, D. K. (2021). German Education system and its pedagogical significance in the world Education system. International journal of innovations in engineering research and technology, 8(04), 99-102.
11. Nasrullayev, E. (2021). ISTIQLOL DAVRI DRAMATURGIYASIDA NAVOIY TALQINI. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (Архив№ 1).
12. Файзиллаева, С., & Тахирова, М. А. (2025, April). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НАРЕЧИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 1, pp. 237-240).
13. Яценко, В., & Тахирова, М. А. (2025, April). ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К КЛАССИФИКАЦИИ ЭЛЛИПТИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 1, pp. 67-68).
14. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). VII. THE PROBLEMS OF FORMATION OF A SINGLE INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT. INNOVATIONS AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM, 155.